

## Blockchain texnologiyasining audit jarayoniga ta'siri

Mirkomil O'rolovich Abdulaxatov

abdulakhatovm08@gmail.com

Ilmiy rahbar: Davron Rustamovich Rustamov

TDIU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada blockchain texnologiyasining zamonaviy audit jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri ko'rib chiqilgan. Texnologiyaning asosiy xususiyatlari, auditorlik amaliyotida qo'llanilish imkoniyatlari va O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollari tahlil qilingan. Tezida blockchain asosidagi uzluksiz audit (continuous audit) modelining an'naviy davriy auditdan ustunliklari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** blockchain, audit, detsentralizatsiya, aqlli shartnoma, uzluksiz audit, kriptografiya, moliyaviy nazorat

## The impact of blockchain technology on the audit process

Mirkomil U'rolovich Abdulakhatov

abdulakhatovm08@gmail.com

Scientific supervisor: Davron Rustamovich Rustamov

TSUE

**Abstract:** This article examines the impact of blockchain technology on the modern audit process. The main features of the technology, its application in audit practice, and the prospects for its implementation in Uzbekistan are analyzed. The thesis shows the advantages of the blockchain-based continuous audit model over the traditional periodic audit.

**Keywords:** blockchain, audit, decentralization, smart contract, continuous audit, cryptography, financial control

### Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi moliyaviy nazorat va audit sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Blockchain texnologiyasi - tarqatilgan reyestr texnologiyasi (Distributed Ledger Technology, DLT) - moliya, bank va sug'urta sohalarida keng qo'llanila boshlandi. O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida ushbu texnologiyani moliyaviy tizimga joriy etish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi blockchain texnologiyasining audit sifati va samaradorligiga ta'sirini o'rganish, shuningdek O'zbekiston auditorlik amaliyoti uchun uning tatbiq etilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### Asosiy qism

Blockchain texnologiyasining auditorlik jarayoniga ta'siri bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tranzaksiyalarning o'zgarmas yozuvi (immutable ledger) auditorlarga moliyaviy ma'lumotlarning haqiqiylikini kriptografik usulda tasdiqlash imkonini beradi. Bu an'naviy auditdagi hujjatlarni qo'lda tekshirish zaruratini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ikkinchidan, aqlli shartnomalar (smart contracts) moliyaviy operatsiyalarni oldindan belgilangan shartlar asosida avtomatik bajaradi va qoidabuzarliklarni real vaqt rejimida aniqlaydi. Uchinchidan, blockchain asosidagi uzluksiz audit modeli an'naviy davriy auditdan farqli o'laroq 100% tranzaksiyalarni qamrab olish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, blockchain joriy etilgan kompaniyalarda auditorlik xarajatlari 30-40% ga kamayishi mumkin (Dai & Vasarhelyi, 2017).

O'zbekistonda blockchain-audit tizimini joriy etish uchun huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

#### Xulosa

Blockchain texnologiyasi audit jarayonini inqilobiy o'zgartirish salohiyatiga ega. An'naviy audit modelining asosiy kamchiliklari - cheklangan qamrov, yuqori xarajatlar va insoniy xatolarga moyillik - ushbu texnologiya orqali bartaraf etilishi mumkin. O'zbekistonda tegishli huquqiy muhit va professional tayyorgarlik sharoitida blockchain-audit tizimi moliyaviy nazorat sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. bitcoin.org.
2. Dai, J., & Vasarhelyi, M. A. (2017). Toward Blockchain-Based Accounting and Assurance. *Journal of Information Systems*, 31(3), 5–21.
3. IAASB. (2023). Technology-Related Revisions to ISAs: Blockchain and DLT. International Auditing and Assurance Standards Board.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi PF-6229-sonli Farmoni.
5. Karimov, B. N., & Yusupova, D. T. (2023). Raqamli texnologiyalarning audit samaradorligiga ta'siri. *O'zbekiston Iqtisodiyot Jurnali*, 12(2), 88–103.